

YORILTOSH

Burungi zamonda bir podshohning yolg'izgina qizi bor ekan. Yolg'iz farzandi bo'lgani uchun, undan oldin bolalari tug'ilib o'lavergani uchun uning ismini Toshbibi qo'ygan ekan. Podshoh yolg'izgina qizin- ing taqdirini biiish uchun saroyidagi munajjimplami yig'ib, qizimning taqdiridan fol ochinglar, deb buyuribdi. Qaysi munajjim qur' a tashlab, qaysi munajjim kitobga qarab, boshqasi qumga shakl chizib, o'ntasi cho'plarni birlashtirib, bir-birlariga qarab hayron bo'lisharmish. Yana boshqatdan fol ochishib, yana boshlarini sarak-sarak qilisharmish. Oxiri bosh munajjim podshoh huzuriga kirib, folning natijasini aytishga jur'at qilibdi.

- Podshohim, bir qoshiq qonimdan keching, bir gap aytaman.
- Kechdim, ayt! - debdi podshoh.
- Mahkamizning taqdirlari murdaga bo'lgan, - debdi bosh munajjim.

Podshohning jahli chiqib, jallod, deb yuborishiga sal qohbdi, lekin qoningdan kechdim, deb qo'yganligi uchun tilini tishlabdi.

Bosh munajjimning gapini eshitib qolgan Toshbibi yum-yum yig'lab o'tiribdi. Nima qilarini o'ylabdi. "Taqdirim murdaga yozilgan bo'lsa, taqdirimni izlab cho'lu biyobonlarga chiqib ketay", deb, bir kuni tunda ovga kiyadigan kiyimlarini kiyib, sayisxonadan yaxshi bir otni tanlab, qo'lga o'q-kamonini olib, xurjuniga kerakli ozuqalarini solib, qani, o'sha taqdirni bir ko'ray, deb yo'lga ravona bo'libdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, qancha tog'u toshlardan, qishloqlardan o'tibdi, ammo qaysi joyda aza ko'rsa, o'sha yerdan uzoqroq yuribdi, yura-yura bir biyobondan chiqibdi. Bitta qirning soyasida tamaddi qilib olish uchun o'tiribdi, non tiqilib, suv ichgisi kelibdi. Bu yerda suvni qayerdan topsam bo'larkin, deb atrofga olazarak qarabdi. Hov narida bir qo'rg'on ko'rinishdi. "Shu joyga boray, suv so'ray", deb o'sha tarafga yuribdi. Qo'rg'on darvozasining zulfinini qoqsa, hech kim javob bermabdi. Darvozaning bir tavaqasini itargan ekan, ochilib ketibdi. Katta bog' ekan, bog'ning bir tomonida baland imorat, shu imoratning zinasidan ko'tarilib ichkari kiribdi. Imoratning ichida xonalar ko'p ekan, u xonaning eshigini ochibdi, hech kim yo'q, bu xonaning eshigini ochibdi, pashsha ham uchmasmish. Oxiri bitta katta xonaga kirsa, to'rdagi baland katda bir yigit yotganmish, yaqinroq borib qarasa, yigitning badaniga zich qilib ignalar sanchilganmish. Yigit tirikday yotibdi-yu, ammo qimirlamasmish. Toshbibi yon-veriga qaragan ekan, bir xatni ko'ribdi. Olib o'qisa shunday yozilgan ekan:

- Senga nima olib kelay? - deb so'rabdi u Toshbibidan.
- Bozorga borsangiz, attorlarda yada toshi bo'ladi, o'shandan bittasini olib kelsangiz bo'ldi, - debdi qimtinib.

Yigit bozordan ko'p narsa xarid qilib, oxiri attorning oldiga boribdi. Undan yada toshini so'rabdi, uning bir donasini olib, necha pul beray, desa, olib ketaver, bolam, buning mingtasi bir pul debdi.

- Ota, buni nima qiladi? - deb so'rabdi yigit.

- Buni odamlar oldiga qo'yadi, yuragida hasrat to'lib ketgan bo'lsa, shu hasratini toshga aytadi, tosh yorilsa, uning ko'ngli ham yoziladi, - debdi attor. Cho'rining qanday hasrati bor ekan, deb yigit hayron bo'libdi, olib kelib toshni qizga beribdi va pana joydan turib uni poylabdi. Toshbibi ovloq bir joyga o'tib oldin uzoq yig'labdi, keyin yig'lab- yig'lab yuragidagi gaplarni to'kib solibdi, munajjimlardan eshitgan gapidan tortib, biyobonga kelgungacha, kelgandan keyin qancha vaqt o'tirib yigitning badanidagi ignalarni bitta-bitta olgunigacha, cho'rini sotib olib, uni boqqanigacha va oxiri o'zi cho'riga aylangunigacha bo'lgan voqealarni bir-bir aytib bo'lishi bilan tosh paq etib yorilibdi.

Yigit haqiqatni bilgach, cho'rini otning dumiga bog'lab, otga achchiq qamchi bosibdi, ot shataloq otib cho'rini biyobonda sudrab ketibdi. Yigit Toshbibining otasiga xabar yuboribdi.

Podsho qizi topilganidan shod bo'lib, to'y-tomosha bilan qizini yigitga nikohlabdi, o'sha to'yda men ham bor edim, osh yetmay qolib, arazlab ketib edim.

“Osiyo”
Erkin Yusupov
nashrga tayyorlovchi